Социально-психологические аспекты подбора профессорско-преподавательского состава в негосударственных университетах Узбекистана	525
<i>Зеленская Екатерина Георгиевна</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining robototexnik kompetensiyalarini rivojlantirish	529
<i>Do'schonov Shodyorbek Yo'ldoshevich</i>	
Yakka mashg'ulotlarda ruhiy rivojlanishi sustlashgan kar bolalarni mantiqiy tafakkuri va sensor etalonlarini rivojlantirish	532
<i>Pulatova Saodat Maxamadaminovna</i>	
Raqamli pedagogik kompetensiya haqida qarashlar va uning ahamiyati	536
<i>Tillaboyeva Mahfuza Muhammedovna</i>	
SAT imtihonining matematika qismida Desmos grafik kalkulyatoridan foydalanish	540
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Malaka oshirish tizimida jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	544
<i>Nalibayeva Cho'lpon Baxit qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda inqirozli davrlarning kelib chiqishi, sabablari va bartaraf etish yo'llari....	547
<i>Kudratova Gulnoza Shaxritdin qizi</i>	
MTTda variativ dasturlarning ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-amaliy ahamiyati	550
<i>Karimova Umida Sharipovna</i>	
O'smir davrida uchraydigan kiberbulling turlari va ularning psixologik xususiyatlari	552
<i>Amonxonova Yanglishxon Abduazizxon qizi</i>	
Maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiya qilishning innovatsion istiqbollari	556
<i>A'zamov Ruhullo Mahmudjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishda harakatli o'yinlarning ahamiyati	562
<i>Aslanova Zarrina To'ybekovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qo'llaniladigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda bolalar bilan ishlash metodlari	568
<i>Axtamova Aziza Aziz qizi</i>	
Axborot muhitida noto'g'ri ma'lumotlarni tan olish ko'nikmasini shakllantirish metodikasi.....	572
<i>Baliyev Azimjon Narmuminovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	575
<i>Choriyeva Barno Alisher qizi</i>	
Inklyuziv ta'limni samarasini oshirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish	578
<i>Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi</i>	
Talabalarda huquqiy ongni rivojlantirishda interfaol metodlarning roli	583
<i>Ganiyev Elyorbek Ulug'bekovich</i>	
Boshlang'ich ta'lim mavzularini mustahkamlashda qo'llaniladigan usul hamda didaktik o'yinlar texnologiyasi	587
<i>Kamolova Muhabbat</i>	
O'zbekistonda agro erkin iqtisodiy zonalarining rivojlanishi geografik xususiyatlari va unga global iqlim o'zgarishining ta'siri	590
<i>Nazarov Didar Maxsat o'g'li</i>	



Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education	594
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Bo'lajak ofitserlar xulq-atvorida agressivlik namoyon bo'lishining psixologik nyuanslari	597
<i>Rejаметова Iroda Ikramshaykovna</i>	
Sport tashkilotlarida murabbiylar va sportchilar bilan ishlash jarayonini zamonaviy kadrlar boshqaruvi yondashuvlari asosida tizimlashtirish va motivatsiya hamda natijadorlikni oshirish omillarini ilmiy asoslash.....	601
<i>Saparov Xasan Djumanazarovich</i>	
Kichik maktab yoshli bolalarda emotsional intellektni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	606
<i>Abduhalilova Saidaxon Mavlonbek qizi, Qodirova Odina Djurabayevna</i>	
Tarixiy yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	610
<i>Abduraxmonov Alibahrom Abdusalomovich</i>	
Developing Students' Speaking Skills in English Language Lessons	613
<i>Alamuratov Elyor Umarali ugli</i>	
Jahon psixologiyasida hayotga nisbatan bardoshlilikni ilmiy tadqiq etilishi	617
<i>Alimov O'limasjon Ismatovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish	621
<i>Axmedova Nasibaxon Kobiljonovna</i>	
Aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'rni	624
<i>Bilolova Zamira Baxtiyarovna</i>	
Qadimgi Naxshabning diniy me'morchiligi: Yerqo'rg'on ibodatxonasi misolida	629
<i>Eshmurodova Marjon Eshmurod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv rivojlanishni ta'minlovchi o'yin muhitining imkoniyatlari	633
<i>Fozilova Odina Nabiyeвна</i>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy shakllanishini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xususiyatlari	636
<i>I. I. Xalilov</i>	
Modern Teaching Methods Based on Educational Technologies	640
<i>Kirgizov Ismat</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlar tizimi	644
<i>Madraimova Halima G'ayrat qizi</i>	
Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikatsiya va axborot almashish kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullar	648
<i>Olimxon Isaqov Odiljanovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalari	652
<i>Rustamjonov Shoxruxbek Akmaljon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
<i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
<i>N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
<i>Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi</i>	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
<i>Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna</i>	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	



O'ZBEKISTONDA AGRO ERKIN IQTISODIY ZONALARNING RIVOJLANISHI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI VA UNGA GLOBAL IQLIM O'ZGARISHINING TA'SIRI

Nazarov Didar Maxsat o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Geografiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan agro erkin iqtisodiy zonalarining geografik xususiyatlari o'rganiladi. Agro erkin iqtisodiy zonalarining mamlakat iqtisodiyotidagi roli tahliliy natijalar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jahonda dolzarb bo'lib borayotgan global iqlim o'zgarishining ushbu turdagi erkin iqtisodiy zonalariga qanchalik miqyosda ta'sir ko'rsatayotgani bo'yicha ilmiy yondashuvlar amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: agro erkin iqtisodiy zona, global iqlim o'zgarishi, gipoksiya jarayoni, suv tanqisligi, aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalari.

Abstract: This article examines the geographical features of agro-free economic zones operating in the territory of Uzbekistan. The role of agro-free economic zones in the national economy is considered based on analytical results. In addition, scientific approaches are applied to assess the extent to which global climate change, which has become increasingly relevant worldwide, affects this type of free economic zone.

Key words: agro-free economic zone, global climate change, hypoxia process, water scarcity, smart agricultural technologies, artificial intelligence technologies.

Аннотация: В данной статье изучаются географические особенности агросвободных экономических зон, функционирующих на территории Узбекистана. Роль агросвободных экономических зон в экономике страны рассматривается на основе аналитических результатов. Кроме того, реализуются научные подходы к оценке степени влияния глобального изменения климата, приобретающего особую актуальность в мировом масштабе, на свободные экономические зоны данного типа.

Ключевые слова: агросвободная экономическая зона, глобальное изменение климата, процесс гипоксии, дефицит воды, технологии умного сельского хозяйства, технологии искусственного интеллекта.

KIRISH

Agro erkin iqtisodiy zona asosan qishloq xo'jaligi sohasiga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zona hisoblanadi. Odatda bunday zonalar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, eksportga tayyorlash, shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymatga ega agro-sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun tashkil etiladi. Agro erkin iqtisodiy zonalarining asosiy maqsadi muayyan hududni qamrab olgan holda ushbu hududning agrar salohiyatini tubdan yuksaltirish, investitsiyalarni jalb etish, ishsiz aholi uchun ish o'rinlarini yaratish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sifatli tarzda tashkil etishdan iboratdir.

Umuman olganda, ushbu turdagi erkin iqtisodiy zonalar oziq-ovqat mahsulotlari hajmini oshirish va davlat ravnaqi uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan, deb ta'kidlash mumkin. Iqlim o'zgarishi keng tarqalayotgan, jadal va tobora tezlashib borayotgan jarayondir. Mazkur jarayon Markaziy Osiyoda, balki butun dunyo hamjamiyatida eng dolzarb va ekstremallik darajasi ortib borayotgan muammolardan biri hisoblanadi^[8].

Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar va sayyorada yashayotgan har bir jonzot iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini bevosita his qilmoqda. Shu bois iqlim o'zgarishi jarayonini agro erkin iqtisodiy zonalar miqyosida o'rganish ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda hozirgi kunda agro erkin iqtisodiy zonalarining 2 tasi faol ravishda ish olib bormoqda. Bular Qoraqalpog'iston agro erkin iqtisodiy zonasi hamda Buxoro agro erkin iqtisodiy zonalarini hisoblanadi. Ushbu erkin iqtisodiy zonalarining tashkil etilgan vaqti hamda qachondan boshlab faoliyat yuritayotgani haqidagi ma'lumotlarni quyidagi jadval orqali aniqlash mumkin.

1-jadval: O'zbekistonda tashkil etilgan agro yo'nalishdagi erkin iqtisodiy zonalar va ularning tashkil etilgan vaqti

Tartib raqami	Erkin iqtisodiy zona nomi	Tashkil etilgan vaqti
1	Qoraqalpog-agro erkin iqtisodiy zonasi	2020-yil 11-noyabr
2	Buxoro-agro erkin iqtisodiy zonasi	2018-yil 10-iyul

Qoraqalpog-agro erkin iqtisodiy zonasi mamlakatimizning shimoliy qismida, Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan. Tumanlar orasida agro erkin iqtisodiy zonaga eng katta ulush Xo'jayli tumani hissasiga (176,44 ga), keyingi o'rinlarda esa Qo'ng'iro't (118,9 ga) va Kegeyli (103,26 ga) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam maydon esa Ellikqal'a (10,0 ga), Mo'ynoq (33,3 ga) va To'rtko'l (48,0 ga) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi ^[1].

Ushbu erkin iqtisodiy zonaga investitsiyalarni jalb qilish uchun o'ziga xos ustuvor tarmoqlar mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, mintaqadagi mavjud xomashyoga asoslangan qurilish materiallarini ishlab chiqarish, to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish, tsellyuloza-qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish, qizilmiya ekstratini ishlab chiqarish, baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish hamda chorvachilikni rivojlantirish tarmoqlari shular jumlasidandir ^[2].

Buxoro-agro erkin iqtisodiy zonasi Qizilqum bag'rida joylashgan Buxoro viloyatida tashkil etilgan. Ushbu erkin iqtisodiy zonada ham investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, chorvachilikni rivojlantirish, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hamda issiqxona xo'jaligi tarmoqlarini jahon standartlariga moslashtirish va unumdorlikni yuqori darajaga olib chiqish maqsad qilib qo'yilgan ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Global iqlim o'zgarishi bugungi kunda dunyo miqyosida jiddiy muammo tug'dirmoqda. 1850-yildan beri quruqlik va okeanlarning umumiy harorati o'n yillikda o'rtacha 0,06 °C ga ko'tarilib kelmoqda, isish tezligi esa 1982-yildan beri uch baravardan ko'proq bo'lib, ya'ni o'n yillikda taxminan 0,20 °C ga yetmoqda ^[6].

O'zbekiston hududida ham global iqlim o'zgarishi so'nggi yillarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Mamlakatimizda qurg'oqchilikning avj olishi, suv resurslarining yildan-yilga qisqarib borishi, yoz faslining nihoyatda issiq va quruq, qish faslining esa quruq bo'lishi hamda yog'ingarchilik miqdorining kamayishi iqlim sharoitiga, mamlakat iqtisodiyotiga va aholining turmush darajasiga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, tuproq degradatsiyasi, tuproqlarning sho'rlanishi, qishloq ekinlarida zararkunandalar sonining ko'payishi, turli ekin kasalliklarining tarqalishi hamda aholi salomatligida kasalliklarning vujudga kelishi ushbu jarayonlar bilan izohlanadi.

Yuqorida ko'zda tutilgan agro erkin iqtisodiy zonalar davlatimizning Quyi Amudaryo va Zarafshon iqtisodiy rayonlarida joylashgan bo'lib, global iqlim o'zgarishiga nisbatan juda sezgir hisoblanadi. Agro erkin iqtisodiy zonalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va chorvachilikni yo'lga qo'yishda, eng avvalo, suv resurslarini oqilona taqsimlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Hududni suv bilan ta'minlaydigan asosiy suv manbasi Amudaryo hisoblanadi. Biroq keyingi yillarda Afg'oniston hukumati tomonidan Qo'shtepa kanalining barpo etilishi hamda daryoning suv bilan to'yinib turishiga xizmat qiladigan Tyanshan va Pomir tog'laridagi muzliklarning tez sur'atlarda erishi suv tanqisligini yanada kuchaytirishi mumkin.


Iqlim o'zgarishi O'zbekistonni 15 foiz suv yo'qotishiga olib kelmoqda, agar kanal qurilishi natijasida yana 10 foiz yo'qotish yuz bersa, mamlakatimiz umumiy hisobda 25 foiz suv resursidan ayrilishi ehtimoli mavjud ^[10].

Erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan issiqxonalar, shuningdek, boshqa turdagi ishlab chiqarish korxonalari va zavodlar atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarib, iqlim isishiga ta'sir ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi natijasida suv haroratining ko'tarilishi oqim suv havzalarida kislorod miqdorining kamayishiga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayon fanda gipoksiya deb ataladi. Gipoksiya holati erkin iqtisodiy zonalar hududida baliqchilik va baliq mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanayotgan mahalliy tadbirkorlar hamda xorijiy investorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi ^[7].



TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining bandligida qishloq xo'jaligi sektori muhim o'rin egallaydi, chunki davlatimiz aholisining qariyb 1/3 qismi aynan ushbu sohada faoliyat yuritib, o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilaydi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, agro erkin iqtisodiy zonalar qishloq xo'jaligi sektorining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va ularning samaradorligini oshirish maqsadida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.



1-rasm: Agro erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar

Ushbu sxema muallif tomonidan yaratildi. Dronlar qishloq xo'jaligi sanoatida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda ulkan salohiyatga ega. Yakuniy maqsad qishloq xo'jaligini monitoring qilish va boshqa vazifalarni ham yerdan, ham havodan birgalikda bajara oladigan dronlar parkini shakllantirishdan iborat. Dronlar agro erkin iqtisodiy zonada samaradorlikka erishishni maqsad qilgan tadbirkorlar uchun suratga olish, real vaqt rejimidagi ma'lumotlarni yig'ish, tarqatish, sug'orish va ekish kabi afzalliklarni taqdim etadi [9].

Agro erkin iqtisodiy zonada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim choralardan yana biri GPS va GAT texnologiyalarini joriy etishdir. Zamonaviy geografik texnologiyalarni qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda qo'llash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'z samarasini bermoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari XXI asrning misli ko'rilmagan texnologik yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida tuproqni tahlil qilish va monitoringni amalga oshirish, ekinlarni ekish, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, hosilni yig'ib olish va kerakli manzilga yetkazish, shuningdek, chorvachilik va parrandachilik sohaslarida samarali foydalanish mumkin [4].

Qoraqalpog'istonda so'nggi yillarda yerlarni lazerli tekislash texnologiyalari qo'llanilmoqda va ushbu yo'nalishda subsidiyalar ajratilmoqda. Mazkur texnologiyalarni agro erkin iqtisodiy zona hududida qo'llash suv resurslarini tejamkor va to'g'ri taqsimlashga xizmat qiladi. Asosan Beruniy, To'rtko'l va Amudaryo tumanlarida bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Lazerli tekislash orqali ushbu mintaqada suv resurslarini 15-20 % ga tejash mumkin [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agro erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga va investitsiya jozibadorligini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi, deb ta'kidlash mumkin. Ushbu turdagi erkin iqtisodiy zonalar asosan qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi xomashyosidan unumli foydalanish, uning sifatini yaxshilash hamda mahsulotlarni eksportga yo'naltirishni maqsad qiladi. Shunga qaramay, agro erkin iqtisodiy zonalar global iqlim o'zgarishlarining ta'sirini sezmoqda. Buning oldini olish maqsadida butun dunyo miqyosida, jumladan, mamlakatimizda ham turli strategik loyihalar amalga oshirilmoqda. Takliflar qurg'oqchilikka moyil hududlarda suv tejovchi qurilmalar uchun mablag' ajratish va ularning hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlashini ta'minlash, jahon qishloq xo'jaligi tajribalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligini, shu jumladan agro erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish, xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligi sohasiga oid ko'nikmalarni shakllantirish va ularni mamlakatimizda targ'ib qilish, agro erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yuritayotgan ishchilarning



malakasini oshirish va bandligini ta'minlash, geografik iqlim xaritalaridan foydalanish hamda geoekologik mezonlarga qat'iy amal qilish, shuningdek, aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan keng foydalanishni o'z ichiga oladi.

Mazkur xulosa va takliflar agro erkin iqtisodiy zonalarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu jarayonlarni har tomonlama, jumladan, geografik nuqtai nazardan ham chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amanov A. K. Qoraqalpoq-Agro erkin iqtisodiy zonasining hududiy xususiyatlari // "Перспективы развития отраслей народного хозяйства в бассейне Аральского моря в условиях глобальных климатических изменений" xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – 190-bet.
2. Amanov A. K. "Qoraqalpoq-Agro" erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy-geografik xususiyatlari // Экономика и социум. – 2021. – № 12–1 (91). – S. 74–81.
3. Amanov A. K., Nazarov D. M. Zarafshon iqtisodiy rayonidagi erkin iqtisodiy zonalar // Экономика и социум. – 2021. – № 1 (128)–2. – 53–56-betlar.
4. Ragimova K. R., Abbasova V. M., Ismailova Z. R., Hasanova T. A. Application of artificial intelligence technologies in agriculture // Herald of the Azerbaijan Engineering Academy. – 2025. – Vol. 17, No. 4. – Pp. 103–104.
5. Saidova D. N. Impact of climate change on agriculture in Uzbekistan: challenges and adaptation strategies // Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2025. – Volume 3, Issue 7 (July). – 26-bet.
6. Yuan X., Li S., Chen J., Yu H., Yang T., Wang C., Huang S., Chen H., Ao X. Impacts of global climate change on agricultural production: A comprehensive review // Agronomy. – 2024. – Vol. 14. – Article 1360.
7. Sindarov Sh. E., Ro'zimatov S. Q. Qishloq xo'jaligi sanoatini rivojlantirishda investitsiya jozibadorligini oshirish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024. – 4(7), July. – 157–158-betlar.
8. Iqlim o'zgarishi va insoniyat. Global isish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar. – URL: <https://kun.uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar>
9. How drones are used in agriculture. – URL: <https://tolluncrewedsystems.com/blog/how-drones-are-used-in-agriculture/>
10. Qo'shtepa kanali. – URL: <https://daryo.uz/2024/07/30/qoshtepa-kanali-besh-yilda-qurib-bitkaziladi/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.